



## ARTICLE INFO

Received: 21<sup>st</sup> April 2021

Accepted: 23<sup>rd</sup> April 2021

Online: 25<sup>th</sup> April 2021

## KEY WORDS

tradition, wedding,  
“Madaniyat”,  
Folklor”, “Nikoh to’yi”,  
“Buxorocha va  
Mavrigi”,  
“Sallabandon”, “Guli  
surx”, “Zang  
raqsi” “Lachak taqish”,  
“Qayroq ufori”, “Ufor”,  
“Larzon” “Lola sayli”,  
“Kindik tushdi”, “zirak  
taqish”

## BUXORO FOLKLOR SAN’ATI VA UNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

Janibekova Yulduz Mamarajab qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> O’zMU magistranti

## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17-aprel 2021

Ma’qullandi: 21-aprel 2021

Chop etildi: 23-aprel 2021

## KALIT SO’ZLAR

“Madaniyat”, “Folklor”,  
“Buxorocha va Mavrigi”,  
“Sallabandon”, “Guli  
surx”, “Zang  
raqsi” “Lachak taqish”,  
“Qayroq ufori”, “Ufor”,  
“Larzon” “Lola sayli”,  
“Kindik tushdi”, “zirak  
taqish”

## BUKHARA FOLK ART AND ITS FEATURES

Janibekova Yulduz Mamarajab qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> O’zMU master

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4718274>

## ABSTRACT

*This article examines the scientific study of folklore in the system of traditions and national culture. In addition, the local forms of wedding ceremonies in the system of national folklore genre, their functions are revealed. In particular, the peculiarities of wedding ceremonies in Bukhara region were studied.*

## ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada milliy madaniyatimizning ko’rinishlaridan bo’lgan folklor, uning o’ziga xos xususiyatlari, shakllari tadqiq etilgan. Shuningdek, Buxoro folklori, uning namoyon bo’lishi, yoshlarda badiiy-estetik didni rivojlantirishiga ta’siri va zamonaviy ahamiyati tahlil etilgan.*



Qadimdan diyorimizning ko'rkam va madaniy-ma'rifiy maskanlaridan biri bo'lgan Buxoroiy sharifning boy xalq ijodiyoti o'zining hayotbaxshligi, va ayni payta, kasbiy musiqa shakllanishida muhim manba bo'lganligi bilan ham benihoya ahamiyatlidir. Xalq og'zaki ijodi turli soha olimlari ( folklorshunos, etnograf, adabiyaotshunos, va b.) tomonidan tadqiq etilgan.<sup>1</sup>Bu jixatdan alohida e'tiborli va qimmatli fikrlarni san'atshunoslik fanlari doktorlari F. Karomatli, I. Rajabov, T. Vizogo va A. Nazarovlarning tadqiqotlarida ko'ramiz.

Mutaxassislar Buxoro an'anaviy musiqasining kelib chiqish negizlarini aniqlashda, hamda o'ziga xos xususiyatlarni anlab olishda bir qator manbalarni inobatga olish zarurligini qayd etdilar. Masalan, musiqashunos olimlar A. Nazarov va R. Yunusovlarning fikricha, " Zardushtiylik ( milloddan avvalgi XV asrdan)", budizm ( Kushon podsholigi, miloddan avvalgi I asr-milodning III asri) diniy qo'shiqchiligi bilan, sosoni, kushan va turkey ( V – VII asrlar ) sulolasining saroy musiqachiligi an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan Buxoro musiqasi mahalliy asoslari, bir tomondan, hind- eron merosini, ikkinchi tomondan, turkey merosni o'ziga singdiradi. O'rta asrlarda ana shunday boy ijodiy negizda Buxoro ko'pgina milliy ( eron, arab, tojik va boshqa ) hamda mahalliy ( Farg'ona, Toshkent, Xorazm va hokozo) musiqa uslublarning shakllanishiga kata ta'sir ko'rsatdi.<sup>2</sup> Bu fikriga katta asos bor albatta. Buxoro musiqasida qadimdan kelayotgan turli etnik guruhlarining musiqiy qadryatlari bir-biriga bog'lanib ketganligi shubha tug'dirmaydi. Biroq bu hudud musiqasining boshqa mahalliy musiqa uslublari

shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini asoslovchi kuchli ilmiy dalil yo'q bizda. Bu masalaga taniqli mushiqashunos olim Fayzulla Koromatli tomonidan turli yil ( 1960. 1982) larda Buxoro shahri va viloyatlarida uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya natijalari oydinlik kiritishi mumkin edi. Chunki ekspeditsiya davomida viloyatning uzoq tuman va shaharlarida istiqomad qilayotgan aholi hayotida kechayotgan musiqiy jarayonlar, hamda baxshilar ijodida yuzaga kelgan turfa an'ana va musiqiy namunalarning magnit tasmlarga yozib olingan. Afsuski, atoqli olim jamlagan qimmatli ma'lumotlar va musiqiy materiallar to'liq holda chop etilmagan, balki maxsus hisobot tarzida yozilib, San'atshunoslik instituti kutubxonasiga topshirilgan. Ekspeditsiya davomida magnit tasmlarga tushurilgan nashr ettirilgan " O'zbek xalqi musiqa merosi (XX asrda )" turkumida e'lon qilingan.<sup>3</sup>

Fayzulla Karomatlining Buxoro hududi bo'ylab qilgan musiqiy-folklor ekspeditsiyasining natijasi o'laroq olimning o'zbek musiqasida mavjud to'rta asosiy mahalliy (Farg'ona – Toshkent, Surxondaryo – Qashqadaryo, Xorazm va b.) uslubning biri – Buxoro – Samarqand musiqa uslubi ilmiy idrok etilgan edi. Olimning bu kabi ilmoy hulosalari musiqashunoslik fanida hozirgi kungacha e'tirof etilgan " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ning ikkinchi jildida " Buxoro – Samarqand musiqa uslubi"ga quyidagicha ta'rif berilgan: " Buxoro – Samarqand musiqa uslubi shu shaxarlar va viloyatlarning hududlarida muayyan ijtimoiy – tarixiy vaziyat kesimida uzul – kesil qaror topgan va ustuvorlik maqomiga yuksalgan musiqiy an'analarning majmuidir. Qadimdan madaniyat maskanlari bo'lmish bu vohalarda cholg'u kuylari, xalq qo'shiq va ashulalari hamda mumtoz musiqa ijodiyoti namunalari keng

<sup>1</sup> To'raev F.J Buxoro mug'anniylari. - : Fan. 2009. – 323 b

Remel L.I. Aritekturniy opnament Uzbekistana. Istoriya razvitaya I reoriya postroeni.: -T., 1961.-604 s

<sup>2</sup> Alimbayeva K., Axmedov M. Narodnaya muzikanti Uzbekistana. – T.: Goslitizdat. 1959. -127 s.

<sup>3</sup> Ibragimov O. Fargano - Tshkentskie. – T.: Media Land. 2006 – 175 s



o'rin tutadi. Ayniqsa, kasbiy musiqa yo'nalishlari xilma-xilligi va musiqa voqeligida keng yoyilganligi bilan ajralib turadi".<sup>4</sup> Bu yerda Buxoro va Samarqand musiqa an'analari, jihatdan yaqinligi nuqtai nazardan bir uslubiga birlashtirib berilgan. Masalan, Buxoro-Samarqand mahalliy musiqa uslubining o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida ikki tillilik (shiru – shakar) an'anasi tilga olinib, bunda ham xalq musiqasi, ham kasbiy musiqaga doir ko'plab aytimlar o'zbek va tojik tillarida kuylanishi qayd etilgan. Lekin bu kabi ta'riflarda Buxoroning o'zigagina xos, ammo musiqashunoslikda hanz o'rganilmagan "Sozanda", "Bahri tavi", "Chillaki", "Chorchillaki", "Zaboniy", "Javoniy", "Mayda g'azal", "Mavrigi" va "Buxorocho"lar alohida bir uslubni ifodalashi takidlanmaydi, balki "Buxoro – Samarqand uslub" iborasida umumlashtirilib yuritiladi. Holbuki, Buxoro musiqa an'alarini Samarqand uslubidan alohida ajratib turuvchiboshqa ko'rinishlari ham oz emas. Ayni paytda Samarqandning ham o'ziga xos musiqiy an'analari mavjud. Shu singari omillarni inobatga oladigan bo'lsak, bu har ikkala hududning betakror musiqa an'alarini "Buxoro – Samarqand" iborasida umumlashtirilishi unchalik ham asosli emasligi ko'zga tashlanadi.

To'g'ri, Buxoro musiqasida mavjud qator jaraglar va ijro yo'sinlari Samarqand madaniyatida ham mavjud. Hattoki, Buxoro Shashmaqomining mohir ijrochilari Samarqandda ham bo'lgan. Lekin Shashmaqomning Buxoroga xos ohang kuy ijro yo'nalishlari ma'lum darajada Samarqanddan farq qiladi.

Xullas, hozirgi davr o'zbek san'atshunoslari oldida turgan yangi ilmiy vazifalar asnosida bu

har ikkala hudud musiqiy an'alarini alohida o'rganish dolzarb ekanligi shubha tug'dirmaydi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur dissertatsiya mazmunida Buxoro musiqiy an'alariga alohida badiiy qiymatli hamda ilmiy tadqiqotga munosib mavzu sifatida yondosharkanmiz, bu borada o'rganilayotgan ob'ekt bo'yicha uslubiy tayanchlardan biri bo'lgan quyidagi dastlabki ilmiy ta'rifni keltiramiz: *Buxoro musiqiy an'analari deganda biz Buxoroiy sharif va uning hududlarida barqaror tus olgan, badiiy qiymati yuksak, lekin shaklu shamoyili va ijrochilik uslubi bilan o'zbek musiqasida alohida o'ringa ega musiqiy qadryatlar majmuyini tushunamiz.*

Shu o'rinda alohida takidlash joizki musiqiy merosining ajoyib namunalari bo'lmish "Buxorcho" va "Mavrigi" turkum taronalarining ham o'ziga xos poetik tabiati, tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va ijro uslublari mavjud. Bu borada o'zining kata mehnatlarini ayamagan folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, ustoz Orif Atoev, professor Fayzulla To'rayevlarning zahmatli mehnatlarini tilga olish joizdir. Ularning qalamiga mansub "Buxorcho" va "Mavrigi" taronalari kitobida mazkur qo'shiq-raqs turkumlarining paydo bo'lish tarixi, tarkibiy tuzilishi, badiiy estetik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berilganligi, ilk bor mazkur turkumlarga mansub qo'shiqlar matn va kuylar notasining nisbatan mukammal jamlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bir qarashda mazkur turkumlar haqida ustozlarimiz tomonidan hamma fikr uzil-kesil aytilganday, hamma narsaga nuqta qo'yilganday tuyuladi. Lekin ularni har bir ijodkor, har bir tadqiqotchi o'zicha talqin va idrok etishga, yurak va shuur prizmasidan o'tkazib talqin qilishga haqlidir, menimcha.

<sup>4</sup> Safarov O., Atoev O., To'raev F. Buxorocho va Mavrigi taronalari. – T.: Fan. 2005. -277 b.  
Pugachenkova G.A. Sredneaziatskie miniatyuri (XVI – XVIII vekov izbrannix obrazax). – T.: Glavnaya redaklopediy. 1994. – 54 s



Buxoroda shakllangan va taraqqiy topgan “Buxorcha” va “Mavrigi” qo'shiq-raqs turkumlari haqida tarixiy-madaniy ildizlarini, shakllanish bosqichlarini, ijro xususiyatlarini, ijrochilar repertuarining o'ziga xosliklarini, boshqa madaniy-qo'shiqchilik an'analari bilan bog'liqligini filologik, madaniyatshunoslik, tarixiy-etnografik va musiqashunoslik nuqtai nazarlaridan xolis va keng o'rganish va ularning madaniyatimiz tizimidagi o'rnini belgilash mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida izchil o'zgarishlar kechayotgan jarayonda alohida dolzarblik kasb etmoqda.<sup>5</sup>

Chunki Buxoroni, bu hududda yuzaga kelgan madaniyatni, buxoroliklarning madaniy-ruhiy qiyofasini anglash uchun “Buxoro shashmaqomi” bilan birga “Buxorcha” va “Mavrigi” turkumlarining mohiyatini nafaqat musiqiy fan, balki falsafa, ilohiyot, filologiya, tarix, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar nuqtai nazaridan ham tushunish va idrok etish kerak. Avvalo, ta'kidlash joizki, “Buxorcha” va “Mavrigi” taronalarining ikki tilda – o'zbek va tojik tilida ijro etilishi Buxoro qo'shiqchiligiga xos zullisonaynlikning yaqqol ifodasidir.

“Buxorcha” va ayrim hollarda “Buxorcha zang” nomlari bilan aytiluvchi bu turkumda maʼlum vaqt birligida ijro etilishi ko'zlangan qo'shiq va raqslardan iborat qism ma'nosini ham anglatadi.

Buxoro to'y marosimlarida ijro etiladigan bu turkum to'ydagi vaziyatga, imkoniyatlar taqozosiga ko'ra uch paytdan iborat holda ijro etilardi.

“Buxorcha” turkumidagi ashula va raqslar doira, qayroq va zang singari urma cholg'ular jo'rligida ijro etilgan bo'lsa, hozir uning qadimiy ijro uslubi tub o'zgarishlarga uchragan. Hozirgi zamonamizga kelib, musiqa asboblar qatoridan rubob, tor, g'ijjak (skripka), elektron

musiqa asboblari (organ), doira, dovul o'rin olgan. O'tmishda ijrochilar dastasi 3 – 5 kishidan iborat bo'lsa, endilikda 6 – 8 kishidan iborat. “Buxorcha” yoki “Buxorcha zang” ijrochilari ayollar bo'lgan. Bu xalq ijrochilik sanʼatida ayollar bazmi uchun alohida asarlar silsilasining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Buxoroda bu ijrochilarni “sozanda” deb aytiladigan hofizalar va raqqosalar guruhi ijro etardi. Bu qo'shiqlar saraxbor va naqoratdan iborat bo'lib, saraxbor yakkaxon tomonidan ijro etilsa (ayni zamonda uning o'zi raqqoslik ham qilgan), naqorat esa – ansambl (jo'rnavozlikda) doira jo'rligida ijro etilgan.

Birinchi bo'limi – to'yona deyilgan, ikkinchisi – yakkaxonlik, uchinchisi – sargardonlik. Ularning matni sevgi-muhabbat mazmunida bo'lib, ayrimlari ulug'vorlik ruhiga sug'orilgan. Qo'shiqlar turkumi doyra jo'rligidagi raqs (zang) bilan tugagan, so'ngra hofizalar yana chiqishib, butun turkum jamoa ijrosi asosida intiho topgan.

“Buxorcha” ashula va raqs turkumi qanaqa to'yda ijro etilganiga qarab, aniqrog'i bazm yo shodiyonaning xarakteriga qarab, oxirida ilova tarzida bazm yo shodiyonani sharaflovchi “Muchal qo'shig'i” (muchal nishonlanayotganda), “Hinobandon qo'shig'i” (qizlar bazmi yo qiz yig'ini marosimida), “Chimildiq taʼrifi” (chimildiqqa kirgan kelinu kuyov tabrigi), “Kelinu xushro'y ovardem” (chiroyli kelinni keltirdik), “Sharbat yalatar qo'shig'i” (chimildiq bazmi va unga aloqador udumlar ijrosi jarayonida), shuningdek beshik to'yi yo xatna to'yiga ulanib o'tkaziladigan, kelin to'ng'ich farzandini ko'rganda, uni ona va ayol sifatida alqaydigan sallabandon (lachakbandon) marosimiga dahldor “Sallabandon qo'shig'i” singarilar ham kuylanadi. Bular turkumga alaqqador emas,

“Buxorcha” – shashmaqom sho'balarining “Ufor” qismlari ohanglariga asoslangan serjoziba raqslarga behad boy. Undagi raqslar

<sup>5</sup> Safarov O., Atoev O., To'raev F. “Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari. Toshkent “FAN”. 2005.



taqriban tubandagi besh ko'rinishda qaror topgan:

1. “Qayroq ufori” – faqat qayroq jo'rligida tez va quvnoq harakatlar zahirida qurilgan raqs.
2. “Ravona” – go'zalning xush raftori, nozik xiromi negiziga qurilgan bu raqs xonanda jo'rligidaijro etiladi.
3. “Ufor” – yakka raqqosa ijrosidagi ritmik raqs. Go'zal mushku anbarini taratib, tomashibinni sarxush etishga chog'langan xarakatlardan tarkib topgan raqs.
4. “Larzon” – faqat doira yoki bir necha doira jo'rligidagi sho'x – shaddot raqs. Bunda tanadagi xar bir a'zoning nafis titrog'i asosidagi dil o'rtaguvchi xarakatlar garmoniyasi orqali ma'no ifodalashga e'tibor berilgan. Bu raqs mustaqil yakka raqs sifatida ham alohida sho'xrat qozongan va ommalashgan. Bunda mashhur xoreograf I. Oqilovning xizmati katta rol o'ynadi.
5. “Zang raqsi” yoki “Zang bandi” – qo'l, bel va oyoqlarga zang bog'lagan holda kuylanayotgan jo'rnavozlikdagi raqs.

“Buxorcha”dagi bu raqslarni ijro etishda kiyimga alohida e'tibor berish an'anaga aylangan. Chunki kiyim raqs shaklini ifodalovchi vosita bo'lib, unda raqsning turmushining qay bir jabhasiga aloqadorligi, insonni to'lqinlatirgan tuyg'u oqimi jilolanishidan tashqari sevgining umidbaxsh va iztirobli lahzalari o'sha kiyimning rangida, raqqosa harakatlariga uyg'un holda yelpinishlari, silkinishlari, qomatni yayratib tovlanishlari bo'rtib, akslanib turadi. Shu vajdan “Buxorcha”dagi raqslarni ijro etishda raqqosa, avvalo, har bir raqsga mos kiyim kiyishga alohida e'tibor bergan. Bu kiyimlarning aksariyati oq va qizil ranglarda bo'lishiga diqqat qilingan. Odatda raqqosa egnidagi zardo'zi ko'ylak yoki zardo'zi kamzulning yoqa va yenglari ham zar yo ipak bilan kashtalangan bo'lgan. Zardo'zi

peshonabog' tang'ib olingan yoki kundal do'ppi kiyilgan.

Raqsdagi harakatlar jozibadorligini kuchaytirishda qayroq hamda qo'l bilagiga va belga solingan zang, shuningdek, oyoq bilagiga solingan zang yoki qo'ng'iroqchalar ham muhim qimmat kasb etgan.

“Buxorcha” raqslar aksari qomatni egmagan xolda ijro etiladi. Raqslar mazmunini to'ldiruvchi bu harakatlar esa: “qosh qoqish”, “elka qoqish”, “chashmak zani” – ko'z uchirdi, “maqomi gardon” – aylanish maqomi, “qarsi girda”- aylanma qars, “yakka qars”, “qo'sh qars”, “halqa yo musht”, “pardai ro'y”- yuz pardalash, “kulcha”, “siynalarzon”- ko'krak titratma, “larzon qanot”- qanot qoqish, “larzon dast”- qo'l titratma, “panja larzon”- panja titratma, “charx”- chir aylanish, “charximiyan”- bel aylantirish, “charxi dutaraf” ikki tamonlama chir aylanish, “mor pechon” – ilon o'rama, mayda qadam singari nomlari borki, ularning xar bir ijrochi o'z mahoratiga mos tarzda bajara turib yangilaydi, natijada raqslarga yangi ruh bag'ishlaydi.

“Mavrigi” turkumi to'g'risida gap yuritganimizda ustoz Fayzullo To'rayev bu turkum migratsion qo'shiq ekanligi, lekin bu asrlar davomida Buxoroda – Buxoro san'ati va Eron san'atining sintezlashuvi asosida shakllanganligini aytgan. “Mavrigi” Marvdan zo'rlab Buxoroga ko'chirilgan barcha marvliklarning – nainki faqat fors-tojik, balki turkman, o'zbeklarning ham mushtarak ijodiy mahsulidir.

“Mavrigi” - turkumi Buxoroda to'y va shodiyonalarda faqat erkaklar ijrosida doira jo'rligida kuylanib, raqsga tushiladigan turkum qo'shiqlar silsilasi bo'lib, uch mustaqil asosiy payt va alohida payt sifatida shakllanib ulgurmagani qo'shiqlar va raqslar guruhidan iborat qo'shimcha qismdan tarkib topgan mustaqil asosiy paytlarning har biri o'z nomlanishiga ega bo'lib, bular quyidagicha:



Birinchi payt- “shahd”, o'n qo'shiq va undan ortiq raqslardan iborat. Ikkinchi payt- “Chorzarb”, bu payt ikki nusxada ijro etiluvchi yigirma to'rt qo'shiq va undan ortiq raqs tarkib topgan: birinchi nusxasi faqat tojikcha o'n to'rt qo'shiq va raqsdan iborat bo'lsa, ikkinchi nusxasi shiru shakar va o'zbekcha o'n qo'shiq va raqsdan tarkib topgan. Gap shundaki, bu ikki nusxa tinglovchilarning milliy tarkibi hisobga olingan holda ijro etilishga mo'ljallangan: aytaylik, tinglovchilarning ko'pchiligi tojiklar bo'lsa - tojik tilida ijro qilingan, o'zbeklar bo'lsa - o'zbek tilida ijro etilgan. Ayrim hollarda aralash holda ijro etish uchraydi.<sup>6</sup> Uchinchi payt- “Shikan-shikan”, o'n qo'shiq va raqsdan iborat. Qo'shimcha qismga mansub hazil qo'shiqlaru raqslar payt sifatida alohida nomga ega emas. Unda, asosan, hashoratlar, hayvonlar va odamlar haqidagi hazilomuz qo'shiqlar kuylana turib, raqsga tushiladi. Hozircha bu guruhga mansub sakkiz qo'shiq aniqlangan, bu qo'shiqlarning ayrimlari o'zbekcha ijrochilar repertuarida bir necha musiqalar uchraydi.

Mavrigilarni o'tmishda to'rt, keyinroq ayrim hollarda uch kishilik erkaklar ijro etishi an'anaga aylangan. Dastaning barcha a'zolari doira chalib, qo'shiq kuylaganlar, lekin raqsga tushmaganlar. Mavrigixonlar chaqirilgan davraga alohida raqqos va doiradast chaqirilgan, boshqa dasta tarkibiga kirmaganlar. Ammo vaqtlar o'tishi bilan raqsn ham mavrigixonlar dastasidagilarning o'zlari ijro eta boshlaganlar, chunki har gal alohida raqqos taklif etishning iloji bo'lmagan, qolaversa, alohida raqqosning moddiy kelishuvga ishiroki ham bunga mone'lik qilgan. Bu turkum, asosan, Buxoro shahar va qishloqlarida kuylanib kelinmoqa. Hozirgi zamonamizda mavrigixonlik ijrochilari

zamonaviy musiqa asboblarda ijro etib kelmoqdalar.

Yana bir fikr shuki, “Mavrigi” turkumini, uning nomidan kelib chiqqan holda, sof eronlikliklarga mansub san'at namunasi sifatida talqin qilishga urinish hollari ba'zi san'atkorlar orasida uchrab turadi. Bunda fikrlarga qarshi dalil sifatida bir necha yil avval Eronlik san'atkorlar bilan ijodiy hamkorligimiz mobaynida biz eronlik san'at muxlislari va musiqashunos mutaxassislar oldida “Mavrigi” turkumini yaxlit ijro qilganimizda, Sharqdagi hamma san'at namunasi o'ziniki deyishga moyil bo'lgan eronlik san'atkorlar olimlar ijromizni diqqat bilan tinglab va tomosha qila turib: “faqat ijroning boshlanishi – “Shahd” Eronnikiga o'xshaydi, qolgan hamma qismi butunlay mustaqil sizlarnikidir” deb e'tirof etishganini alohida ta'kidlamochim.

Shu bilan birga “Buxorcha” va “Mavrigi” qo'shiq-raqs turkumlarining madaniyatimiz tizimidagi o'rnini belgilashda alohida e'tibor qaratilishga muhtoj qator muammolar mavjudligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Avvalo, mazkur qo'shiq-raqs turkumlarining barchasi to'laligicha to'planib, mukammal ilmiy sharhlar bilan nashr etilmaganligini, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish ishlari tarqoq holda olib borilayotganligini ta'kidlash kerak. Yana bir ilmiy e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihat shuki, nimagadir “Buxorcha” turkumiga kirgan yozma adabiyot namunalarining aksariyati buxorolik shoirlarning ijodiga mansub emas (Soleh Buxoriy bundan mustasno). Jaloliddin Rumiy, Pahlavon Mahmud, Kamol Xo'jandiy, Abdurahmon Jomiy, Foni Kashmiriy, Nozim Hirodiy, Zebuniso va Ishoq kabi turli darajada mashhurlikka ega shoirlarning asarlari undan joy olgani holda, keyingi VIII asr mobaynida Buxoroda tug'ilib, barkamol ijod qilgan o'nlab shoirlardan birortasining she'rlari, g'azallari turkumga kirmaganligi ajablanarlidir. Fikrimizcha, “Buxorcha”ning shakllanishida kelib chiqish jihatidan o'tmishda Buxoro bilan

<sup>6</sup> Safarov O., Atoyev O., To'rayev F. “Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari. 18 – 41betlar: Toshkent “FAN”. 2005.



bir tarixiy-madaniy makonda bo'lgan hududlarga mansub ijodkorlarning ishtirokini inkor qilib bo'lmaydi. Qolaversa, Buxorodan uncha olis bo'lmagan manzilda, aniqrog'i Qorako'l tumanida "Buxorcha" nomli qishloq mavjud. Menimcha, bu masala ham alohida tadqiqotlarga muhtojdir.

"Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari yaxlit holda, tugal spektakl sifatida umumiy ketma-ketlikda ijro etilishi kerakligi, bunday ijroning bir necha soat davom etishi hech kimga sir emas. Demak, ularni o'z nafosati bilan ijro etish uchun alohida yuksak mahorat talab qilinadi. O'tmishda bu yo'lni tanlagan shogirdpeshalar ustozlar yonida 10-12 yil davomida "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari ijro qilish sirlarini o'rganganlar. Biz esa oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan bir yillik o'quv dasturlari asosida talabalarga bu taronalarni yuksak mahorat bilan ijro qilishni o'rgatishni istaymiz, ammo, bu juda mushkul ish ekanligini anglamaymiz. Natijada yosh ijrochilar ko'p hollarda har ikki turkum o'rtasidagi tafovutlarni bilmasdan, ularni qorishtirib ijro qiladilar. Ijro shuncha qiyin bo'lsa, uni tomoshabinga yetkazish, tomoshabinning tushunib, qabul qilishi undan ham qiyin ishdir. Jamiyatda "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq-raqs turkumlari taronalaridan bahramand bo'lishga ma'naviy-ruhiy, madaniy ehtiyojni yuzaga keltirish dolzarb vazifalardan biridir.<sup>7</sup>

Qolaversa, "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq-raqs turkumlarini faqat bir xalqqa mansub deb qarash ularning umuminsoniy mazmunini pasaytirgan bo'lur edi deb o'ylaymiz. Ularga o'zbek va tojik xalqlarining mushtarak madaniy merosi sifatida qarash, ularning taraqqiyoti va

shakllanishida, sayqallanib nafosatli ko'rinish olishida taqdir taqozosi bilan Buxoroni o'ziga vatan tutgan eroniy xalqlar, yahudiy, ozarbayjon va turkman xalqlariga mansub ijodkorlarning bebaho ulushi borligini inkor etmaslik kerak.

Yuqorida sanalgan masalalarni hal qilib, "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq-raqs turkumlarini madaniyatimiz tizimidagi o'rnini aniq belgilay olsak, biz ularni umuminsoniy madaniy mulkning tarkibiy qismiga aylantira olishimiz, YuNESKOning umumjahon nomoddiy merosi representativ ro'yxatiga kiritishimiz va shu orqali xalqimizning, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishimiz mumkin.

<sup>7</sup> Karomatov F. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent. "O'qituvchi", 1996, 115- bet; Yana; Buxorcha mavrigixonlik. - "Guliston" jurnali, 1996, 1- son, 41- bet.



## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To'raev F.J Buxoro mug'annilari. - .: Fan. 2009. – 323 b  
Remel L.I. Aritekturniy opnament Uzbekistana. Istoriya razvitaya I reoriya postroeniy.: -T., 1961.-604 s
2. Alimbayeva K ., Axmedov M. Narodnaya muzikanti Uzbekistana. – T.: Goslitizdat. 1959. -127 s.
3. Ibragimov O. Fargano - Tshkentskie. – T.: Media Land. 2006 – 175 s
4. Safarov O., Atoev O., To'raev F. Buxorocha va Mavrigi taronalari. – T.: Fan. 2005. -277 b.
5. Pugachenkova G.A. Sredneaziatskie miniatyuri (XVI – XVIII vekov izbrannix obrazax). – T.: Glavnaya redaklopediy. 1994. – 54 s
6. Safarov O., Atoyev O., To'rayev F. “Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari. 18 – 41betlar: Toshkent “FAN”. 2005.
7. Karomatov F. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent. “O'qituvchi”, 1996, 115- bet;Yana; Buxorcha mavrigixonlik.- “Guliston ”jurnali,1996, 1-son, 41- bet.